



MAVZU:
**“Tarixiy bilimlar va
tarixiy merosning
yoshlarni ma'naviy
tahdidlardan himoya
vositasi sifatidagi
o`rni”**

Magistrant:
Sh. Boboyorov



TADQIQOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Tarixiy bilimlar va tarixiy merosning ma'naviy tahdidlarning keskin kuchayishi sharoitida ulardan himoya qilish vositasi sifatidagi o`rnini tadqiq qilish hamda yoshlarda mafkuraviy immunitetni va yuksak ma'naviyatni shakllantirish omillarini tahlil qilish asosida ulardan foydalanishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.





TADQIQOTNING ILMIY YANGILIGI:

- ⊙ ma'naviy tahdidlarning bugungi kundagi ko`rinishlari va ko`lamini yoritish;
- ⊙ – globallashuv jarayonining milliy taraqqiyotga va yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini tahlil qilish;
- ⊙ – ichki tahdidlarning turlari, mazmun-mohiyati va salbiy ta'sirini ko`rsatish;
- ⊙ – mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ma'naviy tahdidlardan himoya vositasi sifatidagi o`rnini asoslash;
- ⊙ – tarixiy xotiraning yoshlarda o`zlikni anglash va ma'naviy barkamollik fazilatlarini shakllantirishdagi o`rnini asoslash;
- ⊙ – ma'naviy merosning turli ma'naviy va g`oyaviy xurujlarga qarshi himoya vositasi sifatidagi o`rnini tahlil qilish;
- ⊙ tarixiy yodgorliklarning tarixiy xotirani shakllantirishdagi, voqea va jarayonlarning o`zaro aloqadorligini anglashdagi o`rnini ko`rsatish;
- ⊙ Tadqiqotning predmeti. Tarixiy bilimlar va tarixiy merosning ma'naviy tahdidlarga qarshi himoya vositasi sifatidagi o`rnini tadqiq qilish tadqiqotning predmeti hisoblanadi.
- ⊙ Tadqiqotning ob'ekti. Globallashuv jarayonining kengayib borishi sharoitida yoshlarni uning salbiy oqibatlaridan himoya qilish xususida mutaxassislarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiqotning ob'ektini tashkil etadi.

TADQIQOTNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI:

- ⊙ Tadqiqotning amaliy ahamiyati unda bayon etilgan mulohazalar va nazariy umumlashmalardan yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.
- ⊙ Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o`quv yurtlarida O`zbekiston tarixi, O`zbek davlatchiligi tarixi, Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kabi fanlarni o`qitishda, shuningdek, «Obod turmush yili» Davlat dasturi ijrosi bo`yicha o`tkaziladigan ma'naviy tadbirlar rejasini tayyorlashda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo`lida olib borilayotgan targ`ibot ishlarida foydalanish mumkin.





DISSERTATSIYA ISHINING HAJMI VA STRUKTURASI:

**Ushbu dissertatsiya kirish, uch bob, olti
paragraf, xulosa va foydalanilgan
adabiyotlar ro`yxatidan iborat**





**I BOB. Yoshlarni ma'naviy
tahdidlardan himoya qilish
– mamlakat taraqqiyoti va
barqarorligining muhim
omili**





«Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo`lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko`zda tutadigan mafkuraviy, g`oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim».

Islom Karimov

GLOBALLASHUVNING YOSHLAR TARBIYASIGA SALBIY TA'SIR ETISHI UCHUN QUYIDAGI OMILLARDAN FOYDALANILMOQDA:



- ⊙ **Informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi orqali;**
- ⊙ **mafkuraviy manipulyatsiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga bo`lgan e'tiborning kuchayishi;**
- ⊙ **Demokratiya niqobi ostida «ommaviy madaniyat»ning turli ko`rinishlarining yoshlar orasida keng tarqalishi;**
- ⊙ **Yoshlar o`rtasida taqlidchilik, g`arb ideallariga ko`r-ko`rona ergashish va b.**

Internet



© Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko`ra, XXI asrda internetdan foydalanuvchilar soni dunyo aholisining qariyb 20 foizini tashkil qilib, ular kundan kunga ko`payib bormoqda.



«Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo`naltirilgan, bir qarashda arzimas bo`lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko`zga ko`rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo`lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin»


ISLOM KARIMOV

- ◎ **MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA RUHIYATIGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI, G`ARAZLI MAQSADLAR KO`ZLANGAN AYRIM KO`RINISHDAGI AXBOROTLAR XURUJINI QUYIDAGILARGA AJRATISH MUMKIN:**

AXBOROT VA INFORMATSIYALAR BILAN BOG`LIQ BO`LGAN



TASVIRLI OVOZ KO`RSATUVLAR BILAN BOG`LIQ BO`LGAN



«SAN'AT»NING AYRIM TURLARI BILAN BOG`LIQ BO`LGAN






- © «Internetda mavjud bo`lgan pornografik saytlarning umumiy yillik daromadi 97,3 milliard dollarni tashkil etadi. Birok. Internetdagi foydali saytlar daromadi mazkur summaning 25 foizini ham tashkil etmaydi. Internet orqali pornografiyani targ`ib qilishning bir daqiqasi uchun 1 mln. 842 ming dollar sarflanadi. Ya'ni har daqiqada 28.258 ta internet foydalanuvchi porno saytga tashrif buyuradi. Yoki bir kunda qidiruvga berilayotgan saytlarning 25 foizi (62 million) pornosaytlardir. Eng dahshatlisi shundaki, ushbu saytlarga «sayohat» qilayotganlarning asosiy kismini 12-17 yoshlilar tashkil etmoqda».





- © Bugungi kunda tez-tez ishlatilib kelinayotgan **«globalizatsiya»** atamasi ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda o`tgan asrning oxirlaridan boshlab qo`llanila boshlangan edi. Ko`plab tadqiqotlarda “globallashuv”ni lotin **globus – shar**, fransuz tilidagi **“global”** – umumbashariy tushunchalari bilan ta'riflaydilar.



«Tabiiyki, **«ommaviy madaniyat»** degan niqob ostida axloqiy buzuvlik va zo`ravonlik, individualizm, egotsentrizm g`oyalarini tarqatish, kerak bo`lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatleri, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo`porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo`ymaydi»

BUGUNGI KUNDA «**OMMAVIY MADANIYAT**» NIQOBI OSTIDA YURTIMIZGA KIRIB KELAYOTAN XURUJLAR ASOSAN QUYIDAGI KO`RINISHLARDA NAMOYON BO`LMOQDA:



- ⊙ moliyaviy imkoniyatlarga ega bo`lgan ayrim siyosiy kuchlarning g`arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ommaviy madaniyatdan foydalanish;
- ⊙ yoshlarning ongi va tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarib,
- ⊙ soxta g`oya va mafkuralarni targ`ib etishga urinish;
- ⊙ g`arazli maqsadlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- ⊙ ma'naviy tarbiya, mustaqil tafakkurni izdan chiqarishga urinish;

ICHKI MA'NAVIY TAHDIDLAR: KO`RINISHLARI VA SABABLARI

**Mahalliychilik, urug`-aymoqchilik,
giyohvandlik, iqtisodiy jinoyatlar, terrorizm,
diniy ekstrimizm va b.**









VKU-2010

Всероссийский конгресс узбеков
узбекистанцев














© **Mutaxassislarning fikricha,
dunyoda ishlab chiqariladigan
geroinning 3/4 qismi Afg`oniston
hissasiga to`g`ri keladi.**

BIRINCHI BOB YUZASIDAN YUQORIDA KELTIRILGAN TAHLILLARNI UMUMLASHTIRGAN HOLDA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

- ⊙ - Insoniyat o'tgan asrda fan va texnika sohasida mislsiz yutuqlarni qo'lga kiritsa-da, dunyo xavfsiz bo'lib qolmadi: ma'naviy qashshoqlashuv, diniy aqidaparastlik va terrorizm, g'arbona turmush tarzini tarqatishga urinish, demokratiya eksporti, axborot xurujlari, globallashuvning jadallashishi va u bilan bog'liq mafkuraviy tajovuzlar va ma'naviy tahdidlar yangi asrga meros bo'lib o'tdiki, ular bugun taraqqiyotimizga xavf solmoqda;
 - ⊙ – Internet tarmog'ida yoshlarning ma'naviyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, g'arazli maqsadlar ko'zlangan ayrim ko'rinishdagi axborotlar xurujini kirib kelishi ma'naviy dunyosi endigina shakllanayotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etmaslik milliy taraqqiyotga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shunday ekan, internet va boshqa axborot kommunikatsiya vositalarining yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga, yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'siri imkoniyatlarini o'rganish muhim nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga ega;
 - ⊙ – turli axborot xurujlarining kirib kelishi kuchayishi sharoitida yosh avlod ongida biryoqlama va soxta tasavvur bo'lmasligi uchun ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholash va ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashash talab etiladi. Shuning uchun ham, «ommaviy madaniyat»ni yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga tahdid sifatida qarab, uning mazmun-mohiyatini o'sib kelayotgan yosh avlodga o'z vaqtida tushuntirib borish har birimizning muqaddas vazifamiz hisoblanadi;
 - ⊙ – ma'naviy tahdidlar diniy nizo va murosasizlik chiqarish ko'rinishida ham ham kuzatilmoqda. Geosiyosiy markazlar islom dini va musulmon mamlakatlarini ham mafkuraviy poligonga aylantirishga, islom dinidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga, uning o'sib borayotgan nufuzini pasaytirishga, obro'sizlantirishga harakatlar bo'lmoqda;

- mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi mahalliychilik va urug`-aymoqchilik kabi illatlarga qarshi kurash vositasi sifatida ma'naviyat, tarix, ma'rifat targ`ibotini kuchaytirish zarur;
- O`zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning yagona Vatan farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg`usini shakllantirish, mamlakatimiz barcha fuqarolarining manfaatlarini o`zida aks ettiruvchi «Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi»dan iborat bo`lgan tafakkurni yoshlarimiz ongiga singdirish va keng tashviqot qilish;
- Mamlakatimiz yoshlari orasida «asr vabosi»ga aylangan giyohvandlikka qarshi keskin kurash olib borish zarur. Buning uchun ommaviy axborot vositalarida targ`ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish maqsadida giyohvandlik va uning zararli oqibatlari haqida ta'sirchan eshittirishlar va ko`rsatuvlarni muntazam namoyish qilib borish zarur bo`ladi;
- Respublikamizning barcha ta'lim maskanlarida, mahallalarda giyohvandlikka qarshi targ`ibot ishlarining samaradorligini yanada oshirish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlari va pedagoglar, shuningdek mahalla vakillarining hamkorligini yo`lga qo`yish maqsadga muvofiq;
- Ta'lim maskanlarida giyohvandlik va uning oqibatlarini yoshlar ongiga singdirish maqsadida filmlar yaratish, kitoblar, bukletlar nashr qilish zarur;



**II BOB. Mafkuraviy
immunitet va tarixiy
xotiraning ma'naviy
tahdidlardan himoya
vositasi sifatidagi o`rni**

YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI QAROR TOPTIRISH QUYIDAGI OMILLARGA ASOSLANADI:

- ◎ Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish; buning uchun ta'lim va milliy tarbiyani rivojlantirish, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish zarur.**
- ◎ Yoshlarida milliy o`zlikni anglash tuyg`usini shakllantirish, milliy meros, urf-odat, an'ana va milliy axloqiy qadriyatlarga e'tiqod, vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirish mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi;**

- ① Zamonaviy informatsion vositalar(OAV bilan bir qatorda kutubxonalar, muzeylar, badiiy va san'at asarlarini namoyish etuvchi ko`rgazma zallari, hujjatli va badiiy kino asarlari)faoliyatini takomillashtirish va ulardan foydalanish mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning zarur sharti hisoblanadi;
- ② Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Tarbiya qadriyatlar ichida eng afzali hisoblanadi.
- ③ Ta'lim va tarbiya bir-birini taqozo qiluvchi hodisalardir. Ulug` ma'rifatparvar, Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo`ja Behbudiy «...dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo`lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir» , – deya ularning o`zaro munosabatini yagona jarayon sifatida talqin etgani ham bejiz emas.
- ④ Tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirish;



**III BOB. TARIXIY
MEROSNING YOSHLARNI
MA'NAVIY TAHDIDLARDAN
HIMOYA VOSITASI
SIFATIDAGI O`RNI**





**Mustaqillik
maydoni**



**Mustaqillik va
ezyulik manumenti**




**Temuriylar tarixi
davlat muzevi**




**Toshkent shahridagi
Amir Temur haykali**

















YUQORIDAGI TAHLILDAN KELIB CHIQIB UCHINCHI BOB BO`YICHA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

- ◎ Yoshlarni turli ko`rinishdagi ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda xalqimizning asrlar mobaynida yaratilib, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan tarixiy merosi mustahkam qalqon bo`lib xizmat qiladi;**
- ◎ ma'naviy merosimizni chuqur o`rganib, yoshlarimiz ongi, dunyoqarashi va qalbiga singdirish orqali ularda o`z tarixi, ajdodlari bilan faxrlanish, g`urur va iftixor tuyg`ularini shakllantirish mumkin;**


- ◎ buyuk tarixiy merosdan xabardor qilish orqali yoshlarda ularga munosib voris bo`lish, pirovard natijada ma'naviyatimizga yot, axloqimizga begona ta'sirlarga berilmasdan o`z Vatani, xalqi, urf-odatlari va an'analariga sadoqat, ularni asrash va davom ettirishga moyillik ruhiyatini shakllantirish ta'minlanadi;
- ◎ tarixiy yodgorliklar ko`z bilan ko`riladigan dalil sifatida yoshlarda ajdodlarimiz ilmidan, mahoratidan va yuksak tafakkuridan guvohlik berib insonlarning ruhiyati, ongi va qalbiga kuchli va samarali ta'sir qilish imkoniyati bilan tarixiy xotirani uyg`otishga yordam beradi;
- ◎ tarixiy yodgorliklarni ko`rish nafaqat tarixiy bilimlarimizni oshirishga, balki tarixiy jarayonlarni mushohada qilish ko`nikmalari shakllanishi, tarixni to`g`ri tushunish va anglashga yordam beradi. Bu esa, uzoq o`tmishimizda yuz bergan voqea va hodisalarni chuqur tahlil qilish, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish bilan bog`liq jarayon hisoblanadi;



XU LOSA

⊙ **Internet tarmog`ida yoshlarning ma'naviyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko`rsatadigan, g`arazli maqsadlar ko`zlangan ayrim ko`rinishdagi axborotlar xurujini kirib kelishi ma'naviy dunyosi endigina shakllanayotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko`rsatishini hisobga olib internet va boshqa axborot kommunikatsiya vositalarining yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga, yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta'siri imkoniyatlarini o`rganish muhim nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga ega;**

⊙ **Turli axborot xurujlarining kirib kelishi kuchayishi sharoitida yosh avlod ongida biryoqlama va soxta tasavvur bo`lmasligi uchun «ommaviy madaniyat»ni yoshlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga tahdid sifatida qarab, uning mazmun-mohiyatini o`sb kelayotgan yosh avlodga o`z vaqtida tushuntirib borish har birimizning muqaddas vazifamiz hisoblanadi;**



❖ **Ma'naviy tahdidlar diniy nizo va murosasizlik chiqarish ko`rinishida ham ham kuzatilmoqda. Geosiyosiy markazlar islom dini va musulmon mamlakatlarini ham mafkuraviy poligonga aylantirishga, islom dinidan o`z manfaatlari yo`lida foydalanib, uning o`sib borayotgan nufuzini pasaytirish va obro`sizlantirishga urinmoqdalar;**

❖ **Milliy madaniyatga, ma'naviyatga yot bo`lgan buzg`unchi g`oyalarning tarqalish xavfi kuchaygan bir sharoitda yoshlarimizning ongi va qalbini asrash, ularni dunyoda ro`y berayotgan siyosiy jarayonlarning haqiqiy sabablarini va ma'no-mazmunini teran anglashlari, ularga nisbatan o`z mustaqil fikri va qat'iy irodasiga ega bo`lishlari muhim ahamiyatga ega;**

© **Yoshlarni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, bir so`z bilan aytganda, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs qilib tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy sharti hisoblanadi;**

© **Yoshlarning buzg`unchi g`oyalarga ergashib ketishining oldini olish maqsadida qadimiy an'analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirishni targ`ib qilish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi mamlakatimiz har bir fuqarosining muqaddas burchiga aylanishi lozim;**

© **Tarixiy xotira millat kelajagi uchun eng muhim boʻlgan oʻtmishdan, hayotiy tajribadan saboq beruvchi muhim manba hisoblanadi; Shu bois uni tiklanishi orqali milliy ruhiyatga begona, buzgʻunchi ta'sirlarga berilmaslik ruhiyati shakllanadi va xalq oʻzligini asrab yashaydi;**

© **Tarixiy xotira inson uchun hech qachon yoʻqolmaydigan, doimiy ravishda ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat berib turadigan poydevor boʻlib xizmat qiladi;**

© **Tarixiy xotira oʻtmish tajribasini umumlashtirish va saboq oʻla bilish imkoniyatiga koʻra turli koʻrinishdagi ma'naviy tahdidlar va gʻoyaviy xurujlardan himoyalashning eng mustahkam vositasi hisoblanadi;**

E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!

